



THE AXIOLOGICAL LINGUISTIC PARAMETERS OF THE CONCEPTOSPHERE OF NATIONAL VALUES IN THE UZBEK LANGUAGE

Dilnoza Bakhtiyorovna Boymatova

Associate Professor at Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: axiolinguistics, conceptsphere, national value, linguocultural model, Uzbek language. Received: 05.12.25 Accepted: 06.12.25 Published: 07.12.25	Abstract: The article examines the conceptsphere of national values in the Uzbek language from an axiological-linguistic (value-oriented linguistic) perspective. It is shown that the system of national values is reflected in the deep layers of the language through concepts, phraseological units, proverbs, lexical-semantic groups, and metaphorical models. Based on this, a general model of Uzbek linguoculturology is proposed.
--	---

O‘ZBEK TILI MILLIY QADRIYATLAR KONTSEPTOSFERASINING AKSIOLINGVISTIK PARAMETRLARI

Dilnoza Baxtiyorovna Boymatova

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
Jizzax, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: aksiolingvistika, kontseptosfera, milliy qadriyat, lingvomadaniy model, o‘zbek tili.	Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tilining milliy qadriyatlar kontseptosferasi aksiolingvistik (qadriyatga yo‘naltirilgan tilshunoslik) nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar tizimi kontseptlar, frazeologizmlar, paremiyalar, leksik-semantik guruhlar va metaforik modellar orqali tilning chuqur qatlamlarida aks etishi ko‘rsatiladi. Shu asosda o‘zbek lingvomadaniyatshunosligining umumiy modeli taklif etiladi.
---	---

АКСИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ КОНЦЕПТОСФЕРЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Дилноза Бахтиёровна Бойматова

Доцент

Джизакского государственного педагогического университета

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: аксиолингвистика, концептосфера, национальная ценность, лингвокультурная модель, узбекский язык.

Аннотация: В статье анализируется концептосфера национальных ценностей узбекского языка с позиции аксиолингвистики (ценностно-ориентированной лингвистики). Показано, что система национальных ценностей отражается в глубинных слоях языка через концепты, фразеологизмы, поговорки, лексико-семантические группы и метафорические модели. На этой основе предлагается общая модель узбекской лингвокультурологии.

Kirish. O‘zbek tili – ming yillik tarixga ega bo‘lgan, Sharq va G‘arb madaniyati o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajargan boy til. Til nafaqat muloqot vositasi, balki millatning ruhiy olami, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashining eng muhim ko‘zgusidir. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida kognitiv lingvistika va aksiologik lingvistika rivojlanishi bilan tilshunoslikda “milliy qadriyatlar kontseptosferasi” tushunchasi markaziy o‘rin egalladi. Bu atama millatning eng muhim qadriyatlarini ifodalovchi kontseptlar majmuini anglatadi va ularning til orqali aks etishi, saqlanishi hamda avloddan-avlodga o‘tishi jarayonini o‘z ichiga oladi.

Aksiologik parametrlar deganda esa ushbu kontseptlarning ijobiy yoki salbiy baholanish darajasi, ierarxiyasi, madaniy ahamiyati va tilning leksik, frazeologik, paremiologik qatlamlarida qanday ifodalanishi tushuniladi. Ushbu maqolada o‘zbek tilining milliy qadriyatlar kontseptosferasidagi asosiy aksiologik parametrlar tahlil qilinadi.

Zamonaviy tilshunoslikda til nafaqat muloqot vositasi, balki millatning dunyoqarashi, qadriyat tizimi va madaniy xotirasini saqlovchi asosiy omil sifatida qaralmoqda. O‘zbek tilshunosligida milliy qadriyatlarning tilga singishi masalasi XX asr oxiri – XXI asr boshlaridan boshlab faol o‘rganila boshlandi. Biroq aksiolingvistik yondashuv (V.Karasik, Y. Stepanov, N. Arutyunova) doirasida o‘zbek tilining qadriyatlar kontseptosferasini tizimli modellashirish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ushbu maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Aksiolingvistika tilning qadriyat semantikasini o‘rganuvchi yo‘nalish bo‘lib, unda “kontsept” markaziy tushunchadir. Kontsept esa – bu madaniy ma’noli kognitiv tuzilma sifatida leksik birliklar, frazeologizmlar, matnlar va nutqiy amallar orqali ifodalanadi. F. Usmanov konseptga “tilda o‘zining nomiga ega va o‘ziga ma’noni, nom uchun asos bo‘lgan madaniy va

diniy konnotatsiyalar, tushuncha va obrazlarni qamrovchi, qisman verballashgan madaniy mazmun, lingvomentall tuzilma” deb ta’rif beradi [3: 16]. Milliy kontseptosfera esa bir millatning asosiy qadriyatlar majmuini tashkil etuvchi kontseptlar tizimidir. O‘zbek tilida bunday kontseptlarning aksariyati islomiy qarashlar, ota-bobolar an’anasi, oila-qarindoshlik munosabatlari va mehnatsevarlik kabi universal hamda milliy qadriyatlar atrofida shakllangan. Quyida o‘zbek lingvomadaniyati uchun asosiy hisoblangan aksiokonseptlarni tahlil qilisga harakat qilamiz.

1. “Vatan” kontsepti. Leksik daraja: vatan, yurtdosh, o‘zbekona, el-yurt. Frazologik daraja: el uchun jon fido qilmoq, yurtдан judo bo‘lmoq. Paremiyalar: “Vatan tuyuqdan aziz”, “O‘z yurtida o‘lik bo‘lguncha, begona yurtida tirik bo‘lma”. Metaforik model: Vatan – ona (ona-Vatan, ona-yurt), Vatan – muqaddas joy (muqaddas yurt).

2. “Oila – avlod” kontsepti. Markaziy leksema: oila, xonadon, avlod, nasl-nasab. Qadriyat ko‘rsatkichlari: ota-onalarning hurmati, katta-kichiklik, qarindoshchilik. Frazologizmlar: qarindoshning qadrini qadrlagan biladi, ota duosi – olish, ona duosi – berish. Nutqiy marosimlar: “Otaning duosi ol!” iborasi deyarli har qanday oilada majburiy etiket formulasi sifatida ishlaydi.

3. “Mehmondo‘stlik” kontsepti. Bu kontsept o‘zbek madaniyatining eng yorqin “vizitka”laridan biri hisoblanadi. Leksik birliklar: mehmon, mehmonnavoz, mehmondo‘st, ziyofat, dasturxon. Paremiyalar: “Mehmon – atoyi Xudo”, “Mehmon kelganda uy egasi boy bo‘lmasa ham, ko‘ngili boy bo‘ladi”. Lingvomadaniy xususiyat: mehmonni “podsho” darajasiga ko‘tarish (mehmon podshodek), dasturxonda eng yaxshi joy va taom mehmon uchun ajratiladi.

4. “Halollik – poklik” kontsepti islomiy-axloqiy qadriyatlarning markazida turadi. Frazologizmlar: halol luqma, halol mehnat, pok vijdon. Metafora: ko‘ngil – oyna (ko‘ngilni pok tutmoq). “Halollik” kontsepti quyidagilarni o‘zida aks ettiradi:


- insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi;
- mehr-muhabbat tuyg‘ularni o‘stiradi;
- vatanga sadoqatli bo‘lishga undaydi;
- insofli, adolatli bo‘lishga, kuchli ilm egallashga chaqiradi;
- tafakkurni rivojlantiradi;
- o‘zaro hurmatda va chidamli bo‘lishni o‘rgatadi” [1:1545]

Yuqoridagi tahlillar asosida o‘zbek tilining milliy qadriyatlar kontseptosferasini quyidagi besh qavatli model orqali ifodalash mumkin:

1. Markaziy yadro (eng muqaddas kontseptlar): Alloh, Vatan, ota-onalarning, avlod.
2. Ikkinchi qavat (axloqiy qadriyatlar): Halollik, mehmondo‘stlik, kamtarlik, sabr-toqat.
3. Uchinchi qavat (ijtimoiy munosabatlar): Hurmat (katta-kichiklik), qarindoshchilik, el-yurt birdamligi.

4. To'rtinchi qavat (estetik qadriyatlar): Go'zallik, san'at, she'riyat (sharqning buyuk she'riyati).

5. Periferiya (kundalik hayot qadriyatlari): Mehnatsevarlik, tozalik, saxovat.



Ushbu model piramida shaklida tasvirlanadi: eng tepada diniy-milliy yadro, pastga tushgan sari qadriyatlar hayotiy-amaliy xususiyat kasb etadi. Har bir qavat oldingi qavatdan kelib chiqadi va uni qo'llab-quvvatlaydi (masalan, “Vatan” kontsepti “Mehmondo'stlik” va “Halollik” orqali mustahkamlanadi).

Yuqoridagi tahlillar lingvomadaniy konseptlar jamiyat va inson ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog'liqlikda hamda rivojlanishda ekanligini ko'rsatmoqda. Tilshunos olim T.Mardiyev “lingvomadaniy konseptlar nafaqat biror xalq yoki millatning umumiy qarashlari ostida, balki jamiyat bilan hamnafas amal qiladi. Bu esa konseptlarning mazmun va shakllari jamiyatdagi o'zgarishlarni ham aks ettiradi [2: 37].

Tilshunoslikda lingvomadaniyat bilan bog'liq yana bir soha rivojlanmoqdaki, unda qadriyatlarning til bilan bog'liqligi tadqiq etiladi. Mazkur soha aksiolingvistika deb ataladi. Aksiolingvistika — tilshunoslikning nisbatan yangi yo'nalishi bo'lib, til va qadriyatlar (aksio — lotincha “qadriyat, qimmatlik”) o'zaro bog'liqligini o'rganadi. “Aksiolingvistika har bir millatning madaniy qarashlarini ko'rsata oladigan fan hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, aksiolingvistikaning mazmuniy tizimida lingvistik tamoyil orqali hali ham aniqlashtirilmagan o'rinlar bor. Masalan, o'zbek xalq maqollari va iboralarida qo'llangan turli mavzuiy guruhlar va ularda ifodalangan moddiy turmushga oid qarashlarda shu xalqning madaniy qadriyatlarini aks ettirish, ularning milliy qadriyatlarimizga oid xususiyatlarini yoritish vazifasini bajaradi” [4: 33]. Aksiolingvistik parametrlar esa — tilning turli darajalarida (leksika, frazeologiya, sintaksis, nutq

odobi, matn va h.k.) milliy yoki universal qadriyatlarning aks etish ko'rsatkichlari, ya'ni til birliklarida qadriyatning qanday "izlari" borligini aniqlash uchun ishlatiladigan mezonlardir.

O'zbek tilining qadriyat semantikasida quyidagi parametrlar ustunlik qiladi:

- Kollektivizm (shaxs emas, jamiyat va oila birinchi o'rinda);
- Iyerarxiklik (yosh va ijtimoiy mavqe bo'yicha hurmat);
- Marosimlashgan nutq (duo, alqamish, tabrik formulalari);
- Metaforiklikning yuqori darajasi (ko'ngil – bog', umr – karvon va h.k.);
- Tabu va evfemizatsiya (o'lim, kasallik, ayol sha'ni haqida gapirishda).

XXI asrda globallashuv va internet ta'sirida yosh avlod orasida an'anaviy qadriyatlarning ahamiyati biroz pasaymoqda. So'rovlar shuni ko'rsatadiki:

1. 18–25 yoshdagi respondentlarning 62% "oiladan ko'ra shaxsiy muvaffaqiyat"ni muhim deb hisoblaydi.

2. "Mehmondorchilik" kontsepti «vaqtni behuda sarflash» sifatida qayta baholanmoqda.

Biroq, ijobiy tendensiya sifatida "ona tilini sevish", "milliy urf-odatlar" haqidagi kontseptlar yoshlar orasida ham yuqori baholanmoqda (85–90%).

O'zbek tili milliy qadriyatlarning jonli saqlovchisi va uzatuvchisi sifatida o'ziga xos kontseptosferaga ega. Ushbu kontseptosferani "Vatan – Oila – Mehmondo'stlik – Halollik" to'rtligi atrofida qurish va besh qavatli lingvomadaniy model orqali tasvirlash mumkin. Kelgusida ushbu model korpus tilshunosligi va kognitiv lingvistika usullari yordamida yanada aniqlashtirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bovmanova B. O'zbek tilida "halollik" konsepti va uning nutqda ifodalanishi // SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021.- B.1543-1543.
2. Мардиев Т. "Бахт" концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қиёсида) // Хорижий филология. №4, 2016 йил.- Б.36-43.
3. Usmanov F. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti. Fil fan.dokt.(DSc) avtoref..- Andijon, 2024. – 76 b.
4. Yuldashev F. Lingvoma'naviyatshunoslik: lingvokulturologiya va aksiolingvistikaga munosabat // Til va adabiyot ta'limi, 2023. 1-son.- B.33.-35.